

**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

YO‘LDOSHEVA UMIDA USMONOVNA

**IJTIMOYIY TADBIRKORLIK SOTSIODINAMIKASI VA UNI
MAHALLALARDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO‘K: 342.553:338.46:346.26(575.1)

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
социологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
sociological sciences**

Yo‘ldosheva Umida Usmonovna

Ijtimoiy tadbirkorlik sotsiodinamikasi va uni mahallalarda rivojlantirish
istiqbollari.....5

Йулдошева Умида Усмоновна

Социодинамика и перспективы развития социального предпринимательства в
махаллях.....29

Yuldosheva Umida Usmonovna

Sociodynamics and prospects of developing social entrepreneurship in
makhallas.....55

Список опубликованных работ

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works.....59

**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

YO‘LDOSHEVA UMIDA USMONOVNA

**IJTIMOYIY TADBIRKORLIK SOTSIODINAMIKASI VA UNI
MAHALLALARDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.1 PhD/S118 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti veb-sahifasi www.moiti.uz va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali (www.ziyo.net)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Seitov Azamat Po‘latovich
sotsiologiya fanlari doktori, dotsent

To‘rayev Odiljon Bektemir o‘g‘li
sotsiologiya bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD21/30.10.2020.Ped/S127.01. raqamli ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ soat __:__ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Istiqbol ko‘chasi, 51-uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com

Dissertatsiya bilan “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Istiqbol ko‘chasi, 51-uy; Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com; veb-sahifa: www.moiti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

T.B.Matibayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, sotsiologiya fanlari doktori, professor

B.B.Mavlonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.M.Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv sharoitida va barqaror rivojlanishning dolzarbligi o'sib borayotgan bir paytda ijtimoiy tadbirkorlik jadal o'sish sur'atlarini namoyish etib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omiliga aylanib bormoqda. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish kesimida ijtimoiy tadbirkorlik daromad keltiradigan va ijtimoiy muammolar yechimiga qaratilgan innovatsion biznes modellarini yaratish orqali kambag'allikni qisqartirish va tengsizliklarga barham berish kabi dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirga erishish vositasi sifatida qaralmoqda. Shunday qilib, ijtimoiy tadbirkorlik nafaqat yangi tendensiya, balki zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy landshaftning ajralmas elementi va global barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim omilidir¹.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Yevropa Komissiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Global tadbirkorlik monitoringi (GEM) va Shvab ijtimoiy tadbirkorlik jamg'armasi ijtimoiy tadbirkorlik, uning ekotizimi, huquqiy tartibga solish va moliyalashtirish mexanizmlari, rivojlantirish va o'qitish dasturlari, shuningdek, uning ijtimoiy, iqtisodiy va atrof-muhitga ta'sirini baholash vositalarini ishlab chiqish sohasida keng qamrovli tadqiqotlar olib boradi². Shvab Ijtimoiy Tadbirkorlik Jamg'armasining so'nggi tadqiqotiga ko'ra, 2024-yil boshida dunyo bo'ylab 10 million ijtimoiy korxonalar mavjud bo'lib, ular 2 trillion dollar daromad keltirdi va har yili 200 millionga yaqin ish o'rinlarini yaratib kelmoqda.

O'zbekistonda keng ko'lamlı siyosiy, ma'muriy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar amalga oshirilayotgan taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash jarayonlarini integratsiyalash muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbekistonning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklari sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikni sotsiologik tahlil nuqtayi nazaridan har tomonlama o'rganish zaruriyati yangilanmoqda. Davlat siyosati iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik jarayonlarini integratsiyalashga intilayotgan bir paytda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka erishishning samarali vositasi sifatida ijtimoiy tadbirkorlikdan foydalanish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradigan tizimli ilmiy asoslar mavjud emas. O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning mohiyati, dinamikasi va rivojlanish istiqbollari o'rganish bo'yicha sotsiologik tadqiqotlar olib borish zarurati milliy iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning rivojlanish vektorlarini bashorat qilishning empirik asoslarini yaratish zarurati bilan bog'liq. Chuqur sotsiologik tahlilning yo'qligi O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik rivojlanishini cheklovchi omillarni tushunishga, shuningdek, uni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning

¹ <https://sdgs.un.org/goals>

² United Nations, *World Youth Report-Youth Social Entrepreneurship and the 2030 Agenda*, 2020; European Commission, *Social enterprises and their ecosystems in Europe, Comparative synthesis report*, 31.01.2020; Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), *What is the Social and Solidarity Economy? A Review of Concepts*, 2023; World Bank, *The Long Shadow of Informality: Challenges and Policies*, Chapter 1, 2022; Asian Development Bank (ADB), *Are Social Enterprises the Inclusive Businesses of Tomorrow?*, 2017; Global Entrepreneurship Monitor (GEM), *Special Top Report: Social Entrepreneurship*, 2016; Schwab Foundation for Social Entrepreneurship, *The state of social enterprise: A review of global data 2013-2023, Insight Report*, April, 2024.

samarali mexanizmlarini shakllantirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni ta‘minlash va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5614-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-avgustdagi “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va mahallalarda tadbirkorlik subyektlari bilan aholi hamkorligini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5214-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2021-yil 24-dekabrda “Iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-62-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va aholi muammolarini hal etishning birlamchi bo‘g‘ini sifatida faoliyat yuritishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-209-son Farmoni va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan.

O‘zbekiston mahallalarida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollarini sotsiologik tadqiq etishning dolzarbligi mahalla institutsional tuzilmasini takomillashtirishga davlat e‘tiborining kuchayishi, ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etishning amalga oshirilayotgan mexanizmlari, jumladan, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, mahalla an‘anaviy ijtimoiy birlik sifatida mavjud ijtimoiy tarmoqlar, o‘zaro yordamning an‘anaviy shakllari va inson kapitali tufayli ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun salmoqli salohiyatga ega ekanligi kabi kompleks omillar bilan belgilanadi. Bu omillar joylarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishning samarali mexanizmi sifatida ijtimoiy tadbirkorlik sohasidagi tashabbuslar uchun qulay shart-sharoit yaratish, aholi turmush sifatini oshirish va ijtimoiy taraqqiyot uchun barqaror muhit yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokpatik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy rivojlanishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aytish joizki, ijtimoiy tadbirkorlik nazariyasi va metodologiyasiga sotsiologik tahlil nuqtayi nazaridan nafaqat O‘zbekistonda, balki MDH davlatlari va xorijda ham juda kam tadqiqotlar bag‘ishlangan.

O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik sotsiologik tahlil kontekstida o‘rganilmagan, lekin ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha

M.Bekmurodov, N.Egamberdiyeva, T.Matibayev, Sh.Sodiqova, A.Seitov³lar tomonidan olib borilgan ishlar e'tiborga loyiqdir. Tadbirkorlik sohasida quyidagi mualliflar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan: U.Gofurov, Sh.Shodmonov, A.Kulmatov, U.Radjabov⁴ va ijtimoiy tadbirkorlikning qonunchilik asoslari sohasida A.Radjabov, S.Ahrorova, A.Qalandarov⁵ kabi mutaxassislar tadqiqot olib borgan. MDH mamlakatlarida so'nggi paytlarda ilmiy jamoatchilik tomonidan ijtimoiy tadbirkorlikka, xususan, ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanish tarixi, amaliy jihatlari va uni rivojlantirishning samarali yo'nalishlariga qiziqish ortib bormoqda. Quyidagi olimlar ishlari alohida e'tiborga loyiqdir: A.Moskovskaya, M.Batalina, L.Taradina, S.Sagarov, Y.Beliy⁶.

Xorijiy olimlardan R.Kantilon, A.Smit, Y.Shumpeter, P.Druker⁷ tadbirkorlikni o'rganishga katta hissa qo'shgan olimlardir. Ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy asoslari va amaliy jihatlari o'rganishga katta hissa qo'shgan olimlar – Ch.Ledbiter, G.Diz, G.Prabu, J.Boshi, D.Bornshteyn, Sh.Jonson, V.Dreyton, J.Ostin, G.Salivan Mort, Mayr va Martin, R.Martin, S.Osberg⁸.

³ Бекмуродов М. Ўзбекистонда жамоатчилик фикри. – Тошкент: Фан, 1999. – 244 б.; Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 220 б.; Матибаев Т. Ўзбекистонда ижтимоий ва жамият ҳаётининг демократлашуви жараёнида ижтимоий ҳамкорлик тизимини ривожлантириш омиллари. Соц. фан. докт. ...дисс. – Тошкент, 2017; Содиқова Ш. Жамиятни модернизациялаш жараёнида кексаларни ижтимоий ҳимоялашнинг социологик таҳлили. Соц. фан. докт. ...дисс. – Тошкент; 2016; Seitov A. Основные принципы интеграционной политики Республики Узбекистан. дисс. ... на соискание канд. социол. наук. – Тошкент, 2012.

⁴ Шодмонов Ш., Гофуров У. Иктисодиёт назарияси. – Тошкент, 2007. – 137 б.; Кулматов А. Ўзбекистонда кичик тadbirkorlik фаолиятининг ривожлантиришнинг ижтимоий-иктисодий муаммолари. Иқт. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004; Раджабов У. Ижтимоий хизматлар соҳасида хусусий тadbirkorlikни ривожлантиришнинг назарий жиҳатлари ва устувор йўналишлари. Иқт. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008.

⁵ Раджабов А. Международный опыт создания социального предпринимательства и некоторые вопросы его внедрения в Узбекистане - <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/1473>; Ахророва С., Қаландаров А. Ижтимоий тadbirkorlik қандай фойда келтиради? <https://yuz.uz/news/ijtimoiy-tadbirkorlik-qanday-foйда-keltiradi>

⁶ Московская А. Социальное предпринимательство в России и в мире: практика и исследования. – Москва: НИУ «Высш. школа экономики», 2011. – 284 с.; Баталина М., Московская А., Тарадина Л. Обзор опыта и концепций социального предпринимательства с учетом возможностей его применения в современной России. – Москва: ГУ ВШЭ, 2008. – 84 с.; Сафаров С.М. Основы социального предпринимательства. – Иваново: Издательство «Роща», 2014. – 295 с.; Е. Белый Основы социального предпринимательства: учебное пособие для ВУЗов. – М: издательство Юрайт, 2023. – 178 с.

⁷ Cantillon R. An Essay on Economic Theory. Translated by Chantal Saucier Edited by Mark Thornton, 2010, Ludwig von Mises Institute and published under the Creative Commons Attribution License 3.0.; Смит А. Исследование о богатстве народов. – Пг., 1954. – 552 р.; Schumpeter, J.A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. – Cambridge, Mass.: Harvard University press, 1934. – 255 р.; Drucker P. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York: Harper & Brothers, 1985.

⁸ Dees G. The Meaning of “Social Entrepreneurship”// https://web.stanford.edu/class/e145/2007_fall/materials/dees_SE.pdf; Prabhu G. Social entrepreneurial leadership // Special MCB Internet Conference Issue on "Leadership in Management", 1999. pp. 36-44.; Jerr Boschee Merging Mission and Money: A Board Member's Guide to Social Entrepreneurship URL: <https://web.archive.org/web/20180722015052id/http://www.socialent.org/pdfs/MergingMission.pdf>; Bornstein D., Davis S. Social entrepreneurship: what everyone needs to know. – Oxford University Press, 2010; Johnson Sh. Literature Review Of Social Entrepreneurship//URL: <https://www.researchgate.net/publication/246704544>; Drayton W. The Citizen Sector: Becoming as Entrepreneurial and Competitive as Business //California Management Review, CMR, Volume 44, Number 3, 2002.; Austin J., Stevenson H., Wei-Skillern J., Social and commercial entrepreneurship: same, different, or both? // Entrepreneurship: Theory and Practice Journal, Baylor University, Volume 30, Number 1, 2006; Mort G., Weerawardena J., Carnegie K. Social entrepreneurship: Towards conceptualization //International Journal of Nonprofit and Voluntary Sector Marketing, Volume 8, Number 1, 2002; Mair J., Marti I., Social Entrepreneurship Research: A Source of Explanation, Prediction, and Delight // Journal of World Business, Volume 41, 2006; Roger M., Osberg S. Social Entrepreneurship: The Case for Definition // Stanford Social Innovation Review, Spring, 2007.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning sotsiodinamikasidan kelib chiqqan holda mahallalarda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

mavjud ta'riflar va uning turdosh tushunchalardan farqlarini o'rganish asosida "ijtimoiy tadbirkorlik" hodisasining mohiyati va xususiyatlarini aniqlash nuqtayi nazaridan konseptual-kategorik apparatni shakllantirish;

ijtimoiy tadbirkorlikni sotsiologik tahlil orqali tadqiq qilish;

xorijda ijtimoiy tadbirkorlikning faoliyat yuritish tajribasini o'rganish;

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni huquqiy tartibga solish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning sotsiodinamikasini o'rganish;

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik rivojlanishining hozirgi holati va uni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan omillarni aniqlash;

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollarini belgilash;

mahallalarda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun resurs salohiyatini aniqlash;

O'zbekistonda va mahallalarda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish algoritmi va modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik belgilangan.

Tadqiqot predmetini ijtimoiy tadbirkorlik sotsiodinamikasi va uni mahallalarda rivojlantirish istiqbollari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishini bajarish jarayonida tizimli, strukturaviy-funksional yondashuv, qiyosiy tarixiy tahlil, retrospektiv tahlil, statistik tahlil, kuzatish, chuqur ekspert suhbat, sotsiologik so'rov, o'rganish, umumlashtirish, materialning birlamchi va ikkilamchi tahlili, SPSSda tadqiqot usullari: dispersiyaning bir tomonlama tahlili (ANOVA), Livin mezoni, Scheffé va Tamhane T-2 kabi aposterior testlar, Pearson va Spearman korrelyatsiya tahlili, Xi-kvadrat usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"ijtimoiy tadbirkorlik" ta'riflarining umumlashma ma'lumotlari asosida uning "korporativ ijtimoiy mas'uliyat", "ijtimoiy intraprenerlik" kabi tegishli farqlari belgilab olinishi "ijtimoiy tadbirkorlik" tushunchasining konseptual-kategorik apparatining sotsiologik mohiyati asoslantirilgan;

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning sotsiodinamikasini e'tiborga olib, qonunchilik va institutsional muhitni moliyalashtirish, qo'llab-quvvatlash mexanizmlari asosida takomillashtirilishi negizida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish vektorlari belgilab olingan;

keys uslubidan foydalanish negizida aholining ijtimoiy tadbirkorlikdan xabardorlik darajasi, faoliyatni boshlashga motivatsiyasi, to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar (gender jihatlari), ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, salohiyati, talabi, taklifi ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlanishini belgilab beruvchi omillar ekanligi sotsiologik

asoslantirilgan;

institutsional baza negizida ta'lim dasturlari, jamoatchilik xabardorligini oshirish, hamkorlik va tarmoqlarni rivojlantirish kabi omillardan iborat ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining harakatlari tartibini tavsiflovchi ko'rsatmalar to'plami ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

IFUT-2 kodlari asosida so'nggi 5 yil davomida ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlikning statistik tahlili o'tkazildi;

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni huquqiy tartibga solish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

aholining ijtimoiy tadbirkorlik haqida xabardorlik darajasi, aholining tadbirkorlik faoliyatini boshlashga bo'lgan motivatsiyasi, aholining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar (jumladan, gender jihatlari), aholi o'rtasida ijtimoiy tadbirkorlik amaliyotini rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan resurslar aniqlandi;

tavsiyalar majmuyidan, shuningdek, mahallalarda ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasini indeksatsiya qilish va ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini o'lchash bo'yicha usullardan iborat O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish algoritmi va mahallalarda ijtimoiy tadbirkorlikni amalga oshirish modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'rganilayotgan muammoni ochib berishga yaxlit ilmiy-sotsiologik yondashish, tadqiqot maqsadlari, predmeti va mohiyatiga mos ravishda tadqiqot usullarini tanlash, tadqiqotga jalb qilingan ekspertlar va respondentlarning yetarli darajada reprezentativligi va asosliligi, shuningdek, ishonchli matematik va statistik usullardan foydalanish, asosiy natijalar va tavsiyalarni amaliy tasdiqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish va milliy iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning rivojlanish vektorlarini bashorat qilishning empirik asoslarini yaratishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlikning o'ziga xos jihatlari, nazariy asoslarini aniqlash bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda turli davlat institutlari va ijtimoiy tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish nazariyasi va metodologiyasini rivojlantirish hamda ijtimoiy tadbirkorlikni joriy etishga xizmat qiladi. Dissertatsiyaning asosiy qoidalari va ijtimoiy tadbirkorlikni joriy etishning taklif etilayotgan usullaridan davlat va hududiy hokimiyat organlari tomonidan keyingi qarorlar qabul qilish va ijtimoiy tadbirkorlik sohasida qonunchilik bazasini shakllantirish uchun foydalanish mumkin. Natija va xulosalar mazkur masala bo'yicha keyingi ilmiy izlanishlar, o'quv materiallarini tayyorlash, talabalar va tadbirkorlik o'quv markazlari uchun dastur va kurslar ishlab chiqishda nazariy va uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan ma'lumotlardan iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha hududiy hokimiyat va muassasalar faoliyatini optimallashtirishda keng foydalanishi hamda

ishlab chiqilgan tavsiyalar va taklif etilayotgan model tadbirkorlik subyektlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatda qo'llanishi mumkin. Mahalla miqyosida ijtimoiy tadbirkorlik rivojlanishini indeksatsiya qilish bo'yicha taklif etilayotgan metodologiyadan mahallalarning ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ishtiroki darajasiga ko'ra obyektiv baholash va reytingini aniqlash uchun foydalanish mumkin, bu nafaqat aholining ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qo'shilish darajasiga ko'ra, balki mahallalarning reyting tizimini yaratish imkonini, shuningdek, har bir aniq mahallada ijtimoiy soha rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari aniqlash imkonini beradi. Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi turli omillarni har tomonlama tahlil qilishga asoslangan ijtimoiy korxonalar faoliyati samaradorligini baholash usuli ijtimoiy korxonalar faoliyatini xolisona baholash imkonini beradi, bu esa ularning shaffofligi va mas'uliyatini oshiradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi.

“Ijtimoiy tadbirkorlik” ta'riflarining umumlashma ma'lumotlari asosida uning “korporativ ijtimoiy mas'uliyat”, “ijtimoiy intrapreneurlik” kabi tegishli farqlari belgilab olinishi “ijtimoiy tadbirkorlik” tushunchasining konseptual-kategorik apparatining sotsiologik mohiyati asoslantirilishi yuzasidan ilmiy takliflardan “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining “Mahallalarda aholi bandligi darajasini oshirishda oilaviy tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanish” nomli JHBL-79 loyihasida foydalanildi. Natijada, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini ilgari surish jarayonida ijtimoiy tadbirkorlik amaliyotlarini integratsiyalash va rivojlantirishga yordam beradigan bir qator asosiy jihatlar ilgari surildi. Ilmiy xulosalar "ijtimoiy tadbirkorlik" tushunchasining mohiyatini chuqurroq anglash imkonini berdi, bu esa iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va ijtimoiy javobgarlik o'rtasidagi o'zaro bog'lanish sifatida namoyon bo'ldi. Bu o'z navbatida, oilaviy tadbirkorlik doirasida ijtimoiy tadbirkorlikning samarali strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish uchun asos yaratdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tadbirkorlik amaliyotlarini oilaviy korxonalarining faoliyatiga integratsiyalash nafaqat ularning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi, balki mahalliy hamjamiyatlarning rivojlanishiga ham hissa qo'shadi, bu esa ilmiy yutuqlarning ahamiyatini yanada oshiradi (**“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 26-yanvardagi 01-09/1783-sonli ma'lumotnomasi**);

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning sosiodinamikasini e'tiborga olib, qonunchilik va institutsional muhitni moliyalashtirish, qo'llab-quvvatlash mexanizmlari asosida takomillashtirilishi negizida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish vektorlari belgilab olinishi bo'yicha takliflardan Tadbirkorlik kodeksi loyihasini ishlab chiqishda hamda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, bepul yuridik xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlarda qo'llanildi. Natijada ijtimoiy tadbirkorlikni institutsional bazasi va huquqiy tartibga solish imkoniyati yaratildi, bu esa uning keyingi rivojlanishi uchun muhim turtki bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tadbirkorlik uchun aniq huquqiy asos va institutiyalashgan tizimni o'rnatish nafaqat uning iqtisodiy barqarorligini, balki ijtimoiy integratsiyasini ham qo'llab-quvvatlaydi va o'z navbatida, turli ijtimoiy-iqtisodiy soha ishtirokchilari o'rtasida yanada samarali o'zaro aloqalarni ta'minlaydi, iqtisodiy

maqsadlar va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari o'rtasida muvozanatga erishishga yordam beradi (**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 1-fevraldagi 11/4-6/1639-sonli ma'lumotnomasi**).

keys uslubidan foydalanish negizida aholining ijtimoiy tadbirkorlikdan xabardorlik darajasi, faoliyatni boshlashga motivatsiyasi, to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar (gender jihatlari), ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, salohiyati, talabi, taklifi ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlanishini belgilab beruvchi omillar ekanligi sotsiologik asoslantirishidan Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda Jahon banki hamkorligida amalga oshirilayotgan "Qishloq ayollarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish" loyihasida yordamga muhtoj ayollarni safarbar etishning ilmiy-amaliy mexanizmlarini aniqlash, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlik amaliyotini amalga oshirish faoliyatida quyidagi ilmiy yangiliklardan foydalanildi (**O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar Qo'mitasining 2024-yil 15-fevraldagi 02-01/224-sonli ma'lumotnomasi**).

Shuningdek, 2023-yil 8-maydan 2023-yil 7-iyulgacha Norvegiya tadqiqot Kengashining 319878-sonli loyihasida Norvegiyaning Bergen shahridagi Kristian Mixelsen ilmiy-tadqiqot institutida taklif etilgan tadqiqot faoliyati doirasida:

institutsional baza negizida ta'lim dasturlari, jamoatchilik xabardorligini oshirish, hamkorlik va tarmoqlarni rivojlantirish kabi omillardan iborat ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining harakatlari tartibini tavsiflovchi ko'rsatmalar to'plami ishlab chiqilishi Norvegiyadagi o'zbek va O'rta Osiyo diasporasi o'rtasida yarim tizimli va chuqur ekspert intervyularini o'tkazishda, O'zbekiston va Norvegiyada ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlikni statistik tahlil qilishda va normativ-huquqiy bazani tahlil qilish orqali ijtimoiy tadbirkorlikning sotsiodinamikasi o'rganishda, uning rivojlanish vektorlari aniqlashda foydalanildi. Ushbu natijalar Norvegiyada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri bo'lgan moliyaviy kirish va inklyuzivlikni yaxshilash jarayonida qo'llanildi (**Norvegiya Bergen shahridagi Kristian Mixelsen ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 15-yanvardagi ma'lumotnomasi**).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta milliy ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy maqola chop etilgan. 7 ta maqoladan 4 tasi respublika, 3 tasi dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 160 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti,

predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar soni, tadqiqotning tuzilishi asoslangan.

“Ijtimoiy tadbirkorlik sotsiologik nazariyalar kontekstida” deb nomlangan birinchi bobda mavjud ta’riflarni tahlil qilish asosida “ijtimoiy tadbirkorlik” hodisasining mohiyati va xususiyatlari ochib berilgan, KIM – korporativ ijtimoiy mas’uliyat”, “NNT”, “ijtimoiy intrapreneerlik”, “an’anaviy tadbirkorlik” kabi tegishli tushunchalardan farqlari aniqlangan, ijtimoiy tadbirkorlik sotsiologik tahlil nuqtayi nazaridan ko’rib chiqilib, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo’yicha xalqaro tajriba tizimlashtirilgan.

Ch.Lidbiter, G.Diz, G.Prabu, J.Boshi, D.Bornshteyn, S.Jonson, V.Drayton, J.Ostin, G.Sullivan Mort, Mayr va Martin, R.Martin, S.Osberg, U.G’ofurov, Sh.Shodmonov, A.Qulmatov, U.Radjabov kabi olimlarning ishlari tahlili asosida ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning yangi turi sifatida an’anaviy tadbirkorlik va notijorat tashkilotlarning faoliyat elementlarini birlashtirgan va ma’lum farqlarni saqlab qolgan holda shakllanganligi belgilab olindi (1-rasm).



1-rasm. Ijtimoiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning yangi turi sifatida shakllanishi (muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlikning an’anaviy tadbirkorlikdan asosiy farqi uning faoliyat maqsadi ekanligi aniqlandi. Moliyaviy ko’rsatkichlar muvaffaqiyat ko’rsatkichi bo’lgan an’anaviy tadbirkorlikdan farqli o’laroq, ijtimoiy tadbirkorlik o’z taraqqiyoti ko’rsatkichlarini aniq ijtimoiy maqsadlarga erishish va ularning ijtimoiy dinamikaga ta’siri asosida baholandi. NTT va ijtimoiy tadbirkorlik

o'rtasidagi farqlar, o'z navbatida, nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy muammolarni hal qilish va xayriya loyihalarini amalga oshirish faoliyati xayriya jamg'armalariga bog'liq bo'lsa, ijtimoiy tadbirkorlik daromad keltiradigan va ijtimoiy muammolarni hal qiladigan daromadli tijoriy faoliyatdir.

Ijtimoiy tadbirkorlikning huquqiy va falsafiy ta'riflarini tahlil qilib, muallifning ijtimoiy tadbirkorlik ta'rifi va uning tegishli tushunchalardan farqlari ishlab chiqildi (1-jadval). Bizning ta'rifimiz: **Ijtimoiy tadbirkorlik** – ijtimoiy, ekologik va madaniy muammolarni tadbirkorlik yoki innovatsion loyihalar orqali hal qilishga qaratilgan, asosiy maqsadi ijtimoiy ta'sir yaratish, foyda esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan ikkilamchi omil bo'lgan faoliyatdir.

1-jadval

KIM, NNT, ijtimoiy intrapreneurlik va ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining qiyosiy tahlili (muallif tomonidan tuzilgan)

<p>Korporativ ijtimoiy ma'suliyat (KIM)</p>	<p>Tijorat tashkilotining o'z faoliyati doirasida jamiyat va atrof-muhit oldidagi javobgarlik tushunchasiga asoslanadi. KIM – barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini, shuningdek, jamiyat va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatish istagini hisobga olgan holda korxonalarining ijtimoiy muammolarni hal qilishda faol jalb qilishni o'z ichiga olgan faoliyat</p>
<p>Nodavlat notijorat faoliyati (NNT)</p>	<p>Ijtimoiy, madaniy yoki jamoat muammolarini hal qilish uchun yaratilgan tashkilot. Nodavlat notijorat tashkilotlari foyda keltirmaydi va o'z faoliyatini jamiyat manfaatlari yo'lida amalga oshirish uchun xayriyalar, grantlar va boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi</p>
<p>Ijtimoiy tadbirkorlik</p>	<p>Innovatsion yondashuvlar hamda bir vaqtning o'zida daromad keltiradigan va ijtimoiy muammolarni hal qiladigan barqaror biznes modellaridan foydalanadigan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat</p>
<p>Ijtimoiy intrapreneurlik (social intrapreneurship)</p>	<p>Ijtimoiy intrapreneurlik tashkilotlar xodimlari ijtimoiy muammolarni hal qilish va ijobiy o'zgarishlarni joriy etishga qaratilgan tashabbuslarni yaratishni rag'batlantiradigan faoliyat</p>

Ijtimoiy tadbirkorlikni tahlil qilish sotsiologik nazariyalar prizmasi orqali amalga oshirildi. Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi nisbatan yaqinda paydo bo'lganiga qaramay, uning kelib chiqishi va tushunchalari ancha oldin paydo bo'lgan; Aflotun uchun ideal jamiyat har bir insonning boshqalarga nisbatan qilgan ezgu ishlariga bog'liq yoki Aristotel uchun har bir inson bir butunning ma'lum qismidir va o'zaro g'amxo'rlik yaxlitlik uchun muhimdir. Ijtimoiy tadbirkorlik g'oyalari Farobiyning odob-axloqqa asoslangan ideal davlat va jamiyat tushunchasi, jamiyatni mustahkamlash, jamiyatda adolatni mustahkamlash uchun axloq, intellektual qobiliyat va tarbiyaga katta ahamiyat berilishi; Amir Temurning axloqiy

tamoyillarga asoslangan siyosiy boshqaruv va ijtimoiy adolat, davlat hokimiyati barcha fuqarolar farovonligi uchun xizmat qiladigan adolatli jamiyat haqidagi g'oyalari; Termiziyning din va aql o'rtasidagi uyg'unlik, ijtimoiy o'zgarishlarning ahamiyati va jamiyat farovonligiga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlar; Zamaxshariyning ijtimoiy tenglik, zaif va kam ta'minlanganlarni qo'llab-quvvatlashning ahamiyati, ijtimoiy adolat barkamol jamiyatning asosiy tamoyili sifatida; Alisher Navoiy kabi ma'rifatparvarlar va Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va Usmon Nosir kabi jadidlarning ma'rifat va ijtimoiy adolat va ta'lim-tarbiyaning jamiyat taraqqiyotining asosiy omili va shaxs qobiliyatini rivojlantirish, o'z-o'zini kamol toptirish va ezgu fazilatlar kamol topishidagi ahamiyati; Imom Buxoriy va Bahouddin Naqshbandlarning ichki shaxs kamoloti va ma'naviy evolyutsiyaning jamiyatni takomillashtirish, nafsni yengish, ma'naviy ma'rifat olish va jamiyatga xizmat qilishdagi ahamiyati; Beruniyning tabiat bilan birlik va unga hurmat, barqaror va farovon jamiyat yaratish uchun odamlar va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va uyg'unlik kabi muhim ijtimoiy va falsafiy ta'limotlarida hamda madaniyatimiz va urf-odatlarimizda ko'p asrlar davomida "savob", "hashar" (birgalikda ishlash va xayriya loyihasida ishtirok etish amaliyoti), "zakot" (mollukni bag'ishlash orqali yaratilgan jamoat ne'mati), "vaqf" (xayriya yoki ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish uchun yer yoki pul mablag'lari), "sadaqa" (mo'minlar muhtojlarga yordam berish uchun amalga oshiradigan xayriya yoki mehribonlikning maxsus turi) kabi ko'rinishlarda o'z aksini topgan. Ijtimoiy tadbirkorlik R.Kantiyon, J.B.Seiya (tadbirkorlik asoslari haqida), A.Smit (ijtimoiy-iqtisodiy tizimda tadbirkorlikning o'rni haqida), J.Shumpeter (tadbirkorlikning innovatsionligi va uning jamiyatga ta'siri haqida), E.Dyurkgeym (ijtimoiy birdamlik va jamiyat integratsiyasi haqida), T.Parsons (ijtimoiy harakatning tuzilishi), M.Veber (ijtimoiy harakatning ma'nosi haqida), P.Burdye (madaniy, ijtimoiy, ramziy kapital vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan iqtisodiy kapital haqida, shuningdek, ikki tomonlama tuzilish haqida), F.Tyonis (jamoalar va jamiyatlar haqida) va ijtimoiy innovatsiyalar nazariyasi, Korporativ ijtimoiy ma'suliyat nazariyasi (KIM), Barqaror rivojlanish konsepsiyasi, Piramida tubi nazariyasi, Xeygenning ijtimoiy o'zgarishlar nazariyasi kabi sotsiologik nazariy tamoyillar prizmasi orqali tahlil qilindi. Ijtimoiy tadbirkorlik innovatsion faoliyat orqali ijobiy ijtimoiy ta'sir ko'rsatishi, an'anaviy biznes modellari va kapitalizmning tengsizligini deformatsiyalash orqali yanada inklyuziv va barqaror ijtimoiy dinamikani shakllantirishi, ijtimoiy kapitalni yaratish va ijtimoiy muammolarni hal qilishda, jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga erishishda o'zaro hamkorlikni shakllantirishda jamoalarning integratsiya va mobilizatsiya qilishga hissa qo'shishi aniqlandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan qator mamlakatlar tajribasi asosida tahlil qilingan va tizimlashtirilgan: ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini huquqiy jihatdan mustahkamlash, tartibga soluvchi qonunchilik bazasi, mavjud tashkiliy-huquqiy shakllar, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ta'minlash institutlari (universitetlar, biznes-inkubatorlar, maxsus markazlar, muassasalar), ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash vositalari va moliyalashtirish manbalari, ijtimoiy tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishning nodavlat manbalari (xususi kapital, jamg'armalar


yordami, kreditlar, mablag' yig'ish va boshqalar), ijobiy ijtimoiy yo'naltirilgan amaliyotlar kesimida tahlil qilindi. Turli mamlakatlarda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omillari ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay va barqaror muhitni yaratuvchi institutsional va huquqiy asoslarni yaratish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va boshqa mexanizmlarni ta'minlash, ijtimoiy tadbirkorlar uchun maxsus ishlab chiqilgan ekspertiza yo'nalishlarini, tahliliy yordam va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, davlat organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda mahalliy hamjamiyat o'rtasidagi hamkorlik kabi omillarga bog'liq ekanligi aniqlandi.

“O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasi” deb nomlangan ikkinchi bobda O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni huquqiy tartibga solish masalalari tahlil qilinib, mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlik rivojlanishining 5 yillik dinamikasining statistik tahlili o'tkazilgan va muallifning O‘zbekiston va Skandinaviya mamlakatlarida o'tkazgan chuqur ekspert intervyulari asosida mintaqada ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish omillari aniqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid qarorlarida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda aks etgan ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilindi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, O‘zbekistonning rivojlanish yo'nalishlari va mahallalar ehtiyojlarini aks ettiruvchi ijtimoiy tadbirkorlik sohalari tasnifi taqdim etilgan. O‘zbekistonda innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda biznesni rivojlantirish va yo'naltirish bo'yicha keng ko'lami islohotlar asosida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligiga e'tibor qaratilgan. Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va soliq imtiyozlari, maxsus institutsional tuzilmalar va ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ekotizimlari kabi jihatlarni hisobga oladigan alohida tashkiliy-huquqiy shakl yoki “ijtimoiy tadbirkor” maqomi berilishi mexanizmini aks ettiruvchi qonunchilik va tartibga solish muhitini yaratish zarurati ta'kidlangan.


IFUT-2 tegishli kodlari bo'yicha 2018–2023-yillarga mo'ljallangan ma'lumotlariga ko'ra, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish usulidan foydalangan holda ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlikni rivojlanishning 5 yillik dinamikasining statistik tahlili o'tkazildi. Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 2023-yilning yanvar oyidagi holati IFUT-2ga muvofiq, respublikada ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlik sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznes subyektlarining umumiy soni 15 148 tani tashkil etadi, jumladan: 36 – suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash; 38 – chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish; 58.1 – kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish va nashriyotchilik faoliyatining boshqa turlari; 58.11 – kitoblar nashr qilish, 60.1 – teleradioeshittirish; 78 – ishga joylashtirish; 85 – ta'lim; 87 – yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash; 88 – yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy

xizmatlar ko'rsatish; 90 – ijod, san'at va ko'ngil ochish sohasidagi faoliyat; 91 – kutubxonalar, arxivlar, muzeylar va boshqa madaniyat muassasalari; 93 – sport, dam olishni va ko'ngil ochishni tashkil etish sohasidagi faoliyat. Huquqiy tartibga solish mexanizmi mavjud emasligi sababli ijtimoiy tadbirkorlik tashabbuslarini qayd etish tizimi mavjud emas. Ijtimoiy sohadagi an'anaviy tadbirkorlik 5 yil davomida rivojlandi, ammo umumiy tadbirkorlikdagi ulushi kam (2-rasm).




2-rasm. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlari va ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlik subyektlarining 5 yillik o'sish ko'rsatkichi

Ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlikning eng rivojlangan sohalari: ta'lim, sport, dam olish va ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish, nashriyot; eng kam rivojlangan faoliyat sohalari: kutubxonalar, arxivlar, muzeylar va madaniyat muassasalari, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va radioeshittirish sohalaridir (3-rasm).



3-rasm. Ijtimoiy yo‘naltirilgan tadbirkorlikning sohalar kesimida taqsimlanishi


Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlari kabi viloyatlarda soha rivojlanishiga qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari ko‘rilishi kerak (4-rasm).



4-rasm. Ijtimoiy yo‘naltirilgan tadbirkorlikning hududlar kesimida rivojlanishi

Uchinchi paragrafda O‘zbekistondagi ekspertlar (N=27) va Skandinaviya mamlakatlaridagi ijtimoiy tadbirkorlar (N=20) bilan chuqur ekspert suh

batlari tahlili keltirilgan bo‘lib, unda O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi holati va rivojlantirish uchun muhim omillar aniqlanadi. O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik rivojlanishining hozirgi holati ekspertlar (O‘zbekiston respondentlari) tomonidan shakllanishning dastlabki bosqichida deb baholandi O‘zbekiston va Skandinaviya mamlakatlaridagi respondentlarning javoblari tahlili (5-rasm) ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish quyidagi omillarni talab qiladi: ijtimoiy tadbirkorlik haqida xabardorlikni oshirish, qonunchilik va institutsional muhitni takomillashtirish, moliyalashtirish, ta‘lim dasturlarini yaratish, ijtimoiy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.




5-rasm. O‘zbekiston va Skandinaviya mamlakatlaridagi respondentlarning javoblarida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim deb ko‘rsatilgan omillar

“O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari” nomli uchinchi bobda aholining ijtimoiy tadbirkorlikdan xabardorligi, aholining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga bo‘lgan motivatsiyasi, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritishdagi asosiy to‘siqlarni o‘rganish natijalari keltirilgan. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq gender masalalari: mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilgan imkoniyatlardan xotin-qizlarning xabardorligi va foydalanish darajasi, tadbirkorlik faoliyatini yuritish bilan bog‘liq gender stereotiplar tahlil qilingan. Mahallalarning resurs salohiyati, mahallalarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va ularning ijtimoiy tadbirkorlik yo‘nalishlariga bo‘lgan ehtiyoji hamda mahallalar ehtiyojlari va aholidan tushgan takliflarning qiyosiy tahlili; mahallalarda ijtimoiy tadbirkorlik amaliyotini joriy etish uchun zarur bo‘lgan asosiy resurslar ham belgilab olindi. O‘zbekistonda, xususan, mahallalarda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslarini yaratish, ijtimoiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish va u haqda xabardorlikni oshirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash, jamoatchilik e’tirofini oshirish va networkingni shakllantirish kabi yo‘nalishlardagi tavsiyalardan iborat algoritmi va modeli ishlab chiqildi. Mahallalarda ijtimoiy tadbirkorlikni amalga oshirish amaliyotida: mahallalarning resurs salohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini aniqlash orqali resurs salohiyati mavjud muammolarni hal etish shaklida ijtimoiy tadbirkorlik amaliyotini joriy etish, mahallalarda ijtimoiy safarbarlikni yo‘lga quyish, tadbirkorlikka o‘qitish markazlari faoliyatini takomillashtirish, tadbirkorlik tashabbuslarini mahallalar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan, shuningdek, mahallalarda ijtimoiy tadbirkorlik rivojlanganligini indeksatsiya qilish va ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini o‘lchash bo‘yicha model taklif qilindi.

2023-yilning iyul–sentyabr oylari davomida mamlakatimizning to‘rtta viloyatida (Toshkent viloyati, Farg‘ona viloyati, Qashqadaryo viloyati, Navoiy viloyati) aholi o‘rtasida sotsiologik so‘rov o‘tkazildi. Ushbu tadqiqotning maqsadi

aholining ijtimoiy tadbirkorlikdan xabardorlik darajasini baholash, aholining tadbirkorlik faoliyatini boshlashdagi motivatsiyasini tahlil qilish, aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash orqali mahallalarda ijtimoiy tadbirkorlikni amalga oshirish istiqbollari va imkoniyatlarini belgilab olishdan iborat edi. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq gender jihatlarini o'rganish, tanlangan hududlardagi mahallalarning resurs salohiyatini baholash, mahallalarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va mahallalarning ijtimoiy tadbirkorlikning turli sohalariga bo'lgan talabini tahlil qilish, mahallalarning ushbu talabini aholining ijtimoiy tadbirkorligining muayyan yo'nalishini ochish tanlovi bilan qiyoslash, mahallalarda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur resurslarni aniqlash kabi vazifalar amalga oshirildi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun ko'p bosqichli, klasterli tanlov yordamida mamlakatimizning to'rtta viloyati tanlanib, har bir viloyatda shahar, qishloq joylari, chekka qishloqlar tamoyili asosida 3-4 ta tuman tanlab olindi va bu hududlarning har biridan bir nechta mahallalar tanlab olindi. Har bir mahallada so'rovning birinchi bosqichida mahalla boshqaruvi xodimlari – mahalla fuqarolar yig'ini raisi, hokimning tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va mahallada kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha yordamchisi, yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli o'rtasida so'rov o'tkazildi. (N=97). So'rovning ikkinchi bosqichi mahalla aholisi o'rtasida o'tkazildi (N=645).


Natijalarga ko'ra, aholining ijtimoiy tadbirkorlik haqidagi xabardorlik darajasi pastligi aniqlandi (6-rasm), bu esa aholining ijtimoiy tadbirkorlik tamoyillari va afzalliklari to'g'risida xabardorligini oshirish uchun axborot kampaniyalari va ma'rifiy tadbirlar zarurligini aks ettiradi. Aholining tadbirkorlik faoliyatini boshlashga asosiy motivatsiyasi moliyaviy foyda bilan bog'liq, biroq ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun aholi o'rtasida moliyaviy foyda va ijtimoiy manfaatni uyg'unlashtirish imkoniyatlarini tushunish uchun axborot ishlarini olib borish kerak.



6-rasm. Ijtimoiy tadbirkorlik haqida xabardorlik

Aholi o'rtasida tadbirkorlikka intilish yuqori va bu faoliyatda moliyaviy qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik o'quv kurslari, bepul moliyaviy va yuridik

